

“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik fanlari” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan

MAQSADLI DASTURI

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	 Quyosh koni wollastonitini boyitishning samarador texnologiyasini ishlab chiqish va sanoat tarmoqlarida foydalanishning texnik imkoniyatlarini kengaytirish	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: jizzax viloyati G‘allaorol tumanidagi Qo‘ytosh konining turli nuqtalaridan olingan wollastonitni geologik namunalarining kimyoviy-mineralogik tarkibi va texnologik xususiyatlar hamda ularni boyitish, tarkibidagi wollastonit mineralini uning ninasimon (tolali) strukturasini saqlab qolgan holda yuqori sifatli wollastonit konsentratini ajratib olishning texnik va texnologik imkoniyatlari tadqiq etiladi. tadqiqotlar natijasida wollastonit konsentratini ajratib olishning energosamarador texnologiyasi ishlab chiqiladi; shuningdek, ushbu wollastonit konsentratini ishlab chiqarishning turli tarmoqlari, xususan, qurilish materiallari, keramika, metallurgiya, lok-bo‘yoq mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqa sohalarida keng foydalanish hamda ushbu yo‘nalishlarda wollastonit konsentratidan foydalanishga oid o‘tkazilgan texnik va texnologik sinovlari bo‘yicha aniq va ilmiy asoslangan natijalar olinadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tasarrufidagi tashkilotlarda, shuningdek, qurilish materiallari, metallurgiya, lok-bo‘yoq mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlik sub’ektlarining ishlab chiqarish bazalarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Bundan tashqari xalqaro ilmiy konferensiyalardan xorijiy olimlar ishtirokidagi muhokamalarga qo‘yiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.